

BERDAQ XALQ FAXRI

Nomozova Gulnoza Rahim qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot institutining “Tibbiy pedagogika va davolash” fakulteti 2-kurs 210-guruh talabasi

Nosirov Behzod Akram o'g'li

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 1 pediatriya va xalq tabobati fakulteti 3-kurs 326-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Ulasheva Yorqinoy Baxrom qizi**

Annotatsiya: Berdaq adabiyotda o‘zining takrorlanmas she’riyati bilan ajralib turadi. Uning she’rlari matnining soddaligi eng muhim jihatlaridan biri. Ijodkor hayotidagi qiyinchiliklarga qaramay buyuk siymo bo‘lganligi hozirgi kun yoshlariga o‘rnak bo‘la oladi. Berdaq she’riyatida vatanga sadoqat, mehnatkash xalqning dardi, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat kabi g‘oyalarni yoritgan.

Kalit so‘zlar: komil inson, ijodiyot, vatanparvarlik,adolat, hurmat, axloq, adolatli shoh, xalq dardi, mehnatkash xalq.

Аннотация: Бердак выделяется в литературе своей уникальной поэзией. Простота текста его стихов — одна из важнейших сторон. То, что художник был великим деятелем, несмотря на жизненные трудности, может служить примером для современной молодежи. В поэзии Бердака он выделил такие идеи, как верность Родине, боль трудолюбивого народа, взаимоуважение между людьми.

Ключевые слова: совершенный человек, творчество, патриотизм, справедливость, уважение, нравственность, справедливый царь, народная боль, трудолюбивый народ.

Abstract: Berdaq stands out in literature for his unique poetry. The simplicity of the text of his poems is one of the most important aspects. The fact that the artist was a great figure despite the difficulties in his life can be an example for the youth of today. In Berdak's poetry, he highlighted such ideas as loyalty to the motherland, the pain of the hardworking people, and mutual respect between people.

Key words: perfect person, creativity, patriotism, justice, respect, morality, just king, people's pain, hardworking people.

Har bir xalqning o‘zligini, milliy mavqeい va qadr-qimmatini dunyoga tanituvchi ulug‘ farzandlari bo‘ladi. Ularning qoldirgan o‘lmas meroslari ayni xalqning nafaqat o‘tmishini, balki buguni va kelajagini ham belgilaydi. Biz ulug‘ Berdaq shoirni nafaqat qoraqalpoq, butun xalqimizning ana shunday ardoqli farzandlaridan biri sifatida doimo qadrlaymiz Islom Karimov. Berdaq demokrat shoir sifatida o‘z davridagi voqealar va ijtimoiy munosabatlarni ilg‘or mavqelarda turib baholaydi. Shoirning tarjimai holi haqidagi ma’lumotlar juda oz. U o‘zining “Umrim” nomli qo‘srig‘ida o‘zining avtobiografiyasini qoldirgan. Ba’zi zamondoshlarini ham qisqacha ta’riflab o‘tgan. Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li Berdaq 1827-yili Orol dengizining janubiy sohilidagi “Oq qal’a” degan joyda kambag‘al baliqchi oilasida dunyoga kelgan. U joy hozirgi Qoraqalpog‘istonning Mo‘ynoq rayoniga to‘g‘ri keladi.

Ortimda o‘g‘a-inim yo‘q,

Yuragimga tegibdi o‘q,

O‘tar boshimdan dunyo-boq,

Ne bo‘larimni bilmadim.

[1]Xalq uchun. Matn: she’rlar Berdaq –Toshkent: Ijod-print, 2021.74-b.

Shoirning hayotidagi xursandchiliklar uzoq davom etmagan. O‘n yoshida u eng yaqin insonlaridan bo‘lmish ota-onasidan ajraladi. Ko‘p kishilik Qarg‘aboy va Qoraqorali oilasi parchalanib, bir burda non va boshpana topish uchun har tomonqa tarqalib ketadilar. Berdaqni Qarg‘aboyning akasi Qashqarboy va uning o‘g‘li Nazarbiy o‘z qaramog‘iga oladilar. Bu yerda Berdaq ularni mollarini boqadi va uy ishlariga yordam berib yuradi.

O‘n yoshga yetganidan so‘ng Berdaq, diniy maktabga boradi, maktabni tamomlaganidan keyin “Qoraqum eshon” madrasasiga o‘qishga kiradi. Ushbu madrasa Qoraqalpog‘istonning shimoliy tomonida joylashgan.

Berdaq Babitxon ismli qizga uylanib, besh qiz va ikki o‘g‘il (Hurliqo, Hurliman, Oyimxon, Aymanbey, Nozibek va boshqalar) ko‘rgan. Lekin o‘rtta yoshlarda bo‘lganida xotini vafot etgach, Bog‘dagul degan qizga uylanib, yana bir qiz va bizning taniqli shoirimiz dunyoga keladi. Katta ro‘zg‘orni tebratish uchun u ovulma-ovul yurib baxshilik qiladi. Lekin bir umr boshi faqirlilikdan chiqmaydi. [2]Chor kitob Sharafiddin Sanoiy Buxoriy –Toshkent: Ijod-print, 2021. -114- b.

Bu dunyo kengmidir yo tor?

O‘ylab ma’nisin bilmadim.

Nursiz umrda nima bor?

Ne bo‘larin bilmadim.

Kiyganim yamoq-yashiq,

Uning ham bor yeri teshik,

Dunyo menga bo‘ldi qo‘shiq,
Ne bo‘larimni bilmadim.

Shoir “Bilmadim” she’rida dunyoga kelib ko‘p qiyinchilik ko‘rganini, kiygani yaxshi kiyimi yo‘qligini boriyam yamoq-yashiq ekanligi, umri qayg‘uda o‘tganini ta’kidlab, o‘z zamonidan noliydi. Biz Berdaqning o‘z asarlaridan va shoirni biladigan odamlarning so‘zlaridan ham uning juda kambag‘al bo‘lganligini, mehnatkash xalq orasidan chiqqanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Berdaqning shoirlik qobiliyati uning yoshligidan paydo bo‘lgan va o‘sha paytdan ashula aytib yurgan. Berdaq tez orada mashhur baxshi va shoir bo‘ladi hamda o‘z she’rlariga musiqa tuzadi. U Qoraqalpog‘istonning katta to‘ylarida, bayramlarida, ovul va qishloqlarida xizmat qiladigan bo‘ldi. Shoir O‘rta Osiyoning o‘sha vaqtdagi mashhur shaharlari; Xiva, Buxoro, Urganch va boshqa shaharlarida bo‘ldi. Bu yerlarda u tarixiy joylar bilan tanishib chiqdi. Shoir Xorazm o‘zbeklari va qoraqalpoqlar orasida nomdor Kunxo‘ja, Ajiniyoz bilan tanish edi, Otesh degan shoir bilan do‘stona munosabatda bo‘lgan.

Mashhur shoirning hayoti kamchilik va qiyinchilikda o‘tgan. O‘zining “Yaxshiroq” she’rida shunday yozgan;
O‘rambet, Nurimbet, Jalol, Sulaymon,
Safar, Mirzo, Orzu, Erimbet – chayon,
Xalq qonini so‘rgan gala beiymon,
Baringdan bizday bir gado yaxshiroq!
Huv, ana, o‘ltirar Kulmurod, Musa,
Ko‘ngli oqarmaydi ming chayib-yuvsa,
Faqirlarga baxtli, nurli kun tug‘sа,
O‘chimni olmasam, o‘lgan yaxshiroq!
Bir oqshom tuttirib, urdi begunoh,
Bandi bo‘lib qoldik chorasiz, evoh,
Qoraqalpoq, yorug‘kun ko‘rmading, oh,
Bundayin yashashdan zindon yaxshiroq.

U biror bir daromad topish uchun hattoki, o‘ziga yoqmagan insonlarga asarlarini kuylagan. Berdaq o‘z yurtini mustaqil bo‘lishini va xalqi baxtli yashashini butun umri davomida orzu qilib yashagan. U she’rida xalqning bandi bo‘lib chorasiz qolganini va bunday yashagandan zindon yaxshiroq deb bot-bot takrorlaydi. “Ahmoq podshoh” asarida Berdaq o‘zini ertaksevarligini aytib o‘tadi. Bu doston romantik bir ruhda yozilgan. Asar nihoyasida Gulzor va Anor podshoh kirdikorlarini aniq bilgach, podshohga qarshi isyon ko‘taradi va bu yo‘lda xalqni birlashtirishadi. Zulmdan ezilib toqati toq bo‘lgan xalq birlashib, kurashga otlanish jarayonini Berdaq shunday tasvirlaydi;

Og‘zibirli bir ish qildi,
Shoh ustiga yurish qildi.
Alpomishday urush qildi,
Shoh lashkarin qirgan ekan.

Asar nihoyasida muallining orzusi ro‘yobga chiqadi, xalq esa niyatiga yetadi. Berdaqning bu asaridagi xalqning jasorati bizga Cho‘lponning “Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir” degan buyuk so‘zlarini eslatadi. Har ikki ulug‘ shoir o‘z davridagi muammoni romantik va realistik yo‘sinda aks ettirgan edilar. Tarixiy mavzudagi “Omongeldi”, “Oydo‘sabobo”, “Ernazarbiy” dostonlarida qahramonlik va vatanparvarlik g‘oyalari tarannum etiladi. “Kerak” she’rida xalqiga odil podshoh kelishiga umid qiladi. U “Shajara” dostonida Markaziy Osiyo mintaqasidagi ayrim xalqlar, xususan qoraqalpoq xalqining kelib chiqishi, tarixiy yo‘li, shajarasini badiiy aks ettiradi. “Shajara” tarixiylik bilan badiiylik birlashib ketgan asardir.

Berdaq asarlarining ko‘pi tarixiy mavzularda bo‘lib, qoraqalpoq xalqining kechmishi, tarixidagi burilish nuqtalari, jasorat ko‘rsatgan qahramonlar haqida so‘zlaydi. Berdaq jamiyatdagiadolatsizlik, tengsizlikni asarlarida ko‘rsatar ekan, yorug‘lik, ozod turmush istagi bilan yashagan xalqni aks ettiradi. Berdaq o‘zi yashagan davrning qiyinchiliklarini mahorat bilan tasvirlaydi. Berdaqning ijodini yuksalishiga juda katta ta’sir ko‘rsatgan omillardan biri bu aynan o‘zining hayoti. Shoiring hikmatlari hayotiyligi bilan ajralib turadi, teranligi bilan kishini hayratga soladi, samimiyligi bilan ko‘ngildan joy oladi, ta’sirchanligi bilan esa xotirada muhrlanib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Xalq uchun {Matn}: she’rlar. Berdaq –Toshkent: Ijod-print, 2021. 172-bet
2. Berdaq She’riyatidan, 1983.96-bet
3. Berdaq. Tanlangan asarlar. T.: 1987. 42-bet
4. Chor kitob Sharafiddin Sanoiy Buxoriy –Toshkent: Ijod-print, 2021. 134-bet
5. <http://www.berdaq.com>
6. www.ziyonet.uz